

ERKIN VOHIDOVNING YUMORISTIK IJODI**Anorboyeva Mehribonu Asqarovna**

o'zbekiston milliy universteti 3-kurs talabasi

Bugungi maolamizning qahramoni ERKIN VOHIDOV hayoti bilan tanishib chiqish davomida u haqda juda ko'p ilmiy publitistik maqolalarni o'qib chiqdm. Hayoti qiyinchiliklarni zahmatkashligi, istedodi va manashu ta'riflar ichida eng to'g'risi, davrning eng dolzab muamolarini, achchiq haqiqatlarini kulib turib qalamga olgan, bizda manashunday muamolar bor deya qo'rqmay baralla ayta olgan haqiqiy ijodkor sifatida ko'z o'ngimda gavdalandi. Anashunday qiyinchiliklarda xalq bilan har qadamda yonmayon turgan, uni dardini tushungan hamda eng keraklisi o'z zamondoshlariga manashu dardni tushunturish uchun butun kuch qudrati ishtiyoqini vaqtini hayotini sariflagan o'lmas ijodkor mohir so'z ustasi sifatida xalqimiz ko'nglidan joy olgan.

SHoirning "Hozirgi yoshlar" (1973), "Doniqishloq latifalari" she`rlar turkumida kuch-qudratga to'lgan, lekin bu kuchni yangilik deya odamlarga zarar keltiruvchi ishga sariflagan shaxs fojiasini (—Matmusaning charxpalagill), tandir ichiga tushib olib o'z izmini eshakka topshirgan gumroh bandaning kulgili holati (—Tandir kiygan Matmusa)ni yumoristik uslubda yoritishga erishgan. Ularda yangilik ketidan quvgan jamiyat, o'z tandirillga kirib olib boshqaruvni eshakmiyaga topshirgan, natijada yo'lini yo'qotgan sho'ro davlati yashirin tarzda kulgi ostiga olingan. Yoki, to'qqiz oyda bajariladigan yumushni uch oyda bajarish talabini qo'ygan, bajarilmagan ishni bajarildi deya bong urayotgan jamiyatning kulgili holati (—Matmusaning uylanishill) o'ziga xos talqin topganini ko'ramiz. Qayta qurish va oshkorlik davrida ruhi tushib ketgan xalqning kayfiyatini biroz bo'lsada, xandaga tortish va kulgu orqali hayotimizdagi tub kamchilik va nuqsonlarni esga tushurish ma`nosida yaratilgan bu asar. Latifalari nihoyatda kulgu qo'zg'atuvchi kitobxonning ichki dunyosi va tuyg'usini uyg'otish jihatidan ahamiyatlidir. Bunday qarasangiz kitobxonning qah-qahasini jumbushga keltiradigan latifalardir. Lekin har bir latifaning zamirida davrning ijtimoiy yutuq, kamchiliklari yumorga o'rab beriladi. Shoirning o'zi latifalar haqida shunday degan edi: —"Donish qishloq latifalari" ni o'qib hamma kuladi. Vaholanki men ularni alam bilan yozganman", - deydi shoir. — Aql idrokka zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirib yotgani sir emas-ku. — Kosasi teskari qurilgan charxpalaklar kammi? Bir pardani tutgancha qolaverган, bir hil ohangni qo'ymay chalaverган Matmusalar ozmi? O'zimiz yaratgan

qoliplarni tandirday kiyib olib, yo'lni ko'rolmay, osmonga qaragancha ketayotgan hollarimiz yo'qmi? Bular kulguli ishlar emas, achinarli, ofatli hodisalar⁸. Xalq hayotining og'ir-yengilini, achchiq-chuchugini, yaxshi-yomonini, ezgu va noshud voqealarini, musbat va manfiy munosabatlarni ulug'lovchi xalq kuychisi obrazini yaratganlar. O'zbeklarda Afandi, qozoqlarda Aldarko'sa, tojiklarda mulla Mushfiq, Turkmanlarda Mirali kabi donolar obrazi xalq qiyofasini ifodalab kelganlar. Erkin Vohidov ana shu donishmand xalq obrazlari vakillarining zamonaviy tipini – Matmusa obrazini yaratgan. Matmusa bunday olib qaraganda Afandining o'zginasi, lekin zamonaviy voqelik bilan ahamiyatlidir. Matmusa zamonning dono va nodon, sodda va ojiz fikrlarini o'zida ifodalab kelishi bilan muhimdir. Shoir – "Inson" qasidasida – "bu yorug' dunyo nadur" deb savol beradi, – "koshonadur vayronadur", deb javob ham qaytaradi. Insonning turli xil qiyofasini – "sen kim-u ne dahri dun, biyron o'zing nodon o'zing" deganda odamlarning turli toifada bo'lishi, turli xil qarashlarda va xilma xil qiyofada bo'lishini ifodalagan edi. Ana shu qiyofalar zamonaviy Afandi – Matmusa siyemosida aks ettirilgan. Ba'zan oshkora ba'zan pinhona yumorlar shoir ijodida muhim rol o'ynaydi. O'z ijodini shunday shaxdam qadamlar bilan davom ettirar ekan shoir davirning yana bir qaltis holarlariga duch keladi, ya'ni tezkor davr o'zgarishlarining yosh avlod dunyoqarashiga ta'siri va ushbu ta'sirning turli avlodlar tafakkurida yuzaga keltirgan ayirmasi – otalar va bolalar muammosini vujudga keltirganligini shoir – "Hozirgi yoshlar" (1973) she`rida yengil yumor va beozor ifodalarda yuz yoshlardagi qariya tilidan bayon etadi. Qariya o'tgan asrning 70-yillari yoshlariga nazar tashlar ekan ular tutumlaridagi yutuq va nuqsonlarni tahlil etib, bobolar mehnatini qadrlashga chaqiradi. Qariyaning tanbehi quyidagi satrlarda yuqori nuqtaga chiqadi: Yana der:

—Bo'sh qolsak tunlar bo'lib jam
 —"Chordarvesh" o'qirdik qurshab tanchani.
 Bular tanimaydi Huvaydoni ham
 Erta-yu kech o'ylar kino, tansani.
 Aqli kirarmikan bularga bir kun.
 Kim biladi qachon quyula boshlar!
 Og'ir kun ko'rmadi
 Balki shuning-chun
 Yengilroq o'sdimi hozirgi yoshlar?

⁸ ERKIN VOHIDOV Publisistik maqolalari:TOSHKENT O'zbekiston-2006

tarzda she`r bandlari davomida kinolar buzayotgan kapalak mijoz, bordi-keldi odatidan yiroq bemehr, og'ir kun ko'rmay engil o'sgan ba`zi yoshlar tanqidi beozor humor vositasidagi ifodalarda aks eta boradi. Erkin Vohidov ijodining deyarli qirq yili sho'ro davriga to'g'ri keladi. Shoir doimo sho'ro davrining so'zda, shiorlarda xalqlar do'stligi-yu, amalda esa faqat bir —og'a xalq"ni ulug'lovchi shovinistik siyosatini his qilib yashadi. Shu bois sobiq Ittifoqdagi boshqa xalqlar tarixi, madaniyati, tili, dini, urf-odatlariga mensimay qarash, oxir-oqibat boshqa millatlarni zimdan yo'q qilib ruslashtirishga olib boruvchi siyosiy yo'llining qanchalik g'ayrimadaniy va g'ayriinsoniy ekanini tanqid qiluvchi she`rlarni yaratdi.

Xullas, akademik N.Karimov ta`kidlaganidek, —Fojiali davr, fojiali voqeа haqida kulib yozish, hajviy tasvir vositalarini o'ynatib, chaqmoq yanglig' charaqlatib yozish oson emas"⁹. Erkin Vohidov ana shu vazifani muvaffaqiyat bilan bajardi. Uning —Tasavvurll (1969) she`ridagi

Mendami ixtiyor?

Yugurar zamon,

Shiddati o'tadi har bir tolamdan.

To'xtasam, to'kilgum bir tomchisiman,

Tomchidek yo'q bo'lib ketgum olamdan

tarzdagi bashoratomuz fikrlari bugun o'z isbotini topmoqda. Zamon shiddatini har tolasiga joylagan ulug' ijodkor asarlarining harakati ko'plab avlodlar qalbiga singib davom etmoqda. Shu bois ushbu asarlar umrboqiy va o'lmasdir.

⁹ Karimov N. Erkin Vohidov gulshani. To quyosh sochkayki nur. Erkin Vohidov hayoti va ijodi zamondoshlar nigohida.-Toshkent:O'zbekiston,2016